

TAVSIYA

(+998) 90 805 82 65 | sheraliev@ffin.uz

Buy

UzAuto Motors AJ

O'sish potentsiali: **25%**

Aksiyaning adolatli narxi: **90 637 UZS**

IPOdagi narx oralig'i*: **72 500 – 81 500 UZS**

AKSIYALAR BOZORI

Kapitalni baholash usuli | DCF

O'zbekiston | Avtosanoat

IPO oldidan baholash

MDHdagi avtomobil ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniya IPOga chiqmoqda



Daromad, 6M2022, TTM (mln AQSH dollar)	2 892
EBITDA, 6M2022, TTM (mln AQSH dollar)	277
Sof foyda, 6M2022, TTM (mln AQSH dollar)	209
Sof qarz, 6M2022 (mln AQSH dollar)	221
<hr/>	
P/E bo'yicha, 6M2022, TTM (x)	10,4x
P/B bo'yicha, 6M2022, TTM (x)	3,4x
EV/EBITDA bo'yicha, 6M2022, TTM (x)	8,7x
ROA, 6M2022, TTM (%)	9%
ROIC, 6M2022, TTM (%)	22%
ROE, 6M2022, TTM (%)	35%
Маржа EBITDA, 6M2022 (%)	9,6%

Pastki chegaradagi kapitallashuv (mln AQSH dollar)*	1 748
Maqsadli (adolatli) narxdan kapitallashuv* (mln AQSH dollar)	2 185
IPOdagi chegirma oralig'i	10-20%
Joylashtirishning pastki chegarasi bo'yicha o'sish potentsiali (%)*	25%
Sof foydadan dividend (%)*	30%
Buyurtma kitobining yopilish sanasi	22.12.22

UzAuto Motors AJ MDHdagi avtomobil ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniya bo'lib, hozirda yiliga 360 mingdan ortiq avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega va mazkur ishlab chiqarish quvvatini 500 mingtagacha oshirishni rejalashtirgan. Kompaniya General Motors bilan texnologik hamkorlikda 8 ta avtomobil modelini ishlab chiqaradi. Hozirda kompaniyaning 100% aksiyadori bo'lib davlat ulushiga ega jamiyat hisoblanadi. Kompaniya IPOga 2022 yil oxirida Toshkent fond birjasida chiqishi kutilmoqda.

O'zbekiston va Qozog'istonda etakchi. Kompaniya O'zbekistondagi avtomobil bozorining 90 foizini, Qozog'istonda bo'lsa 30 foizdan ortig'ini egallaydi.

Jadal rivojlanish. Kompaniya 1993 yildan buyon jadal rivojlanib kelmoqda, daromadlari 1993 yildagi 0,2 mlrd. AQSH dollaridan so'nggi 12 oyda 2,9 mlrd. AQSH dollarigacha o'sdi. So'ngi besh yilda o'rtacha daromad 28%ga o'sgan bo'lsa, sof foyda 2018 yildagi 93 million AQSH dollaridan so'nggi 12 oyda 215 million AQSH dollarigacha ko'tarildi. Kompaniya avtomobil qatorlarini yangilash va hozirgi avtomobil modellarini modernizatsiya qilish ustida doimiy ravishda ishlamoqda.

Xalqaro kapital bozoriga kirish. 2021 yil aprel oyida kompaniya o'z 300 mln. AQSH dollarlik obligatsiyalarini 5 yil muddatga London fond birjasida joylashtirdi. Boshlang'ich stavka 5,375% etib belgilangan bo'lsada besh marta qayta obunadan so'ng, stavka 4,85% gacha kamaytirildi. Prezidentimizning farmoniga asosan, kompaniya 2022 yil oxirigacha Toshkent fond birjasida, keyin esa xalqaro bozorda IPOga chiqishi orqali, investorlarga jamiyat aksiyalarining 25 foizigacha bo'lgan qismini taklif qilishi rejalashtirilgan.

Salmoqli potentsial. Kompaniya o'z kapitallashuv miqdorini bir qator investitsiya loyihalarni va ishlab chiqarish quvvatini oshirish orqali o'rtacha (konservativ) stsenariy bo'yicha 2,185 mlrd. AQSH dollari miqdorida baholamoqda. Bir dona aksiyaning adolatli narxi – 8,09 AQSH dollarini (90 637 so'm), IPOda joylashtirishning pastki chegarasidan o'sish potentsiali 25%ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, kompaniya sof foydaning 30%ni dividend to'lash uchun ajratishni rejalashtirmoqda, bu bo'lsa investorlarga qo'shimcha daromad keltiradi.

Behruzbek Ochilov, AC SI

Investitsion bank menejjeri

(+998) 99 857 17 84 | bochilov@ffin.uz

Iskandar Sheraliev

Investitsion tahlilchi

*Ushbu hisobot "Freedom Finance" MChJ (O'zbekiston) XK tahlilchilari tomonidan tayyorlangan bo'lib, aksiyalarni rejalashtirilgan joylashtirishning dastlabki parametrlariga asoslanadi. Har bir tahlilchi ushbu hisobotda har qanday qimmatli qog'oz yoki emitentga nisbatan ifodalangan barcha fikrlar tahlil qilinayotgan har qanday emitent/qimmatli qog'ozga nisbatan tahlilchining shaxsiy qarashlaridan tashkil topgan. Ushbu hisobotda keltirilgan har qanday tavsiyalar yoki fikr-mulohazalar ushbu hisobot e'lon qilingan sanadagi xulosalardir. Har qanday joylashtirish variantlari dastlabki hisoblanadi. Ushbu hisobot Kompaniyadan mustaqil ravishda tayyorlangan va ushbu hisobotda keltirilgan har qanday tavsiyalar va fikrlar faqat tahlilchining fikrlarini aks ettiradi. Taqdim etilgan faktlarning to'g'riligini ta'minlash uchun qilingan barcha harakatlarni hisobga olib, tahlilchilar, Kompaniya, uning direktorlari va xodimlari ushbu hisobot mazmunining haqiqiylikini tekshirmagan va shunga ko'ra, tahlilchilarning hech biri, Kompaniya, uning direktorlari va xodimlari hech qanday javobgarlikka ma'sul emas. Ushbu hisobotning mazmuni uchun javobgarlik va shuningdek hisobotda taqdim etilgan ma'lumotlarni to'g'ri, adolatli yoki to'liq deb hisoblash mumkin emas. Hech kim ushbu hisobotdan yoki uning mazmunidan har qanday foydalanish natijasida yoki ushbu hisobot bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday yo'qotish uchun hech qanday tarzda javobgar bo'lmaydi. Har bir tahlilchi va/yoki u bilan bog'liq shaxslar ushbu hisobot nashr qilinishidan oldin keltirilgan ma'lumotlarga, shuningdek tahliliy ish natijalariga muvofiq harakat qilishi yoki ulardan foydalanishi mumkin. Ushbu hujjatda ko'rsatilgan ma'lumotlar qimmatli qog'ozlarga nisbatan har qanday oluvchi yoki boshqa shaxs tomonidan investitsiya qarorini qabul qilish uchun asos bo'la olmaydi. Ushbu hisobot biznesni, uning aktivlarini yoki qimmatli qog'ozlarini baholash emas. Oldingi yillardan olingan daromadlar kelajakdagi daromadlar huddi shunday bo'lishini taminlamaydi. Investitsion ob'ekt sifatida qimmatli qog'ozlarni tanlash va shunga mos ravishda bu tanlovning oqibatlari investorning risklaridir.